QASHQADARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# QASHQADARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

## 2023- YILNING YANVAR-APREL OYI UCHUN

Dastlabki ma'lumotlar

| | 2022- y. Yanvar-aprel | 2023- y. Yanvar-aprel |
|---|---|---|
| **Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, mlrd. so‘m** | **4778,3** | **5680,1** |
| **Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining o‘sish sur’atlari, % da** | **111,7** | **106,5** |
| **Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, ming so‘m** | **1591,2** | **1869,3** |
| **Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmalarning o‘sish sur’atlari, % da** | **109,3** | **106,6** |

**Xizmatlar sohasi** bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan turli xil turdagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o‘z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

**Xizmatlar** iste’molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o‘zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar yoki moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko‘maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilning yanvar-aprel oyida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **901,8** mlrd. so‘mga oshib, **5680,1** mlrd. so‘mga yetdi.

Taqqoslama ekvivalentda 2022- yilning yanvar-aprel oyiga (**111,7 %**) nisbatan o‘sish sur’ati **106,5** % ni tashkil etdi.



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqilgan xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari

*(2023- yil aprel oyida)*

| | Hajmi, mlrd. so‘m | O‘sish sur’ati, % da 2022- yil aprel oyiga nisbatan |
|---|---|---|
| **Xizmatlar - jami** | **5680,1** | **106,5** |
| shu jumladan: | | |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 293,9 | 123,7 |
| Moliyaviy xizmatlar | 1015,5 | 108,3 |
| Transport xizmatlari | 1192,0 | 102,5 |
| shu jumladan: avtotransport xizmatlari | 1153,8 | 102,9 |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 184,0 | 104,7 |
| Savdo xizmatlari | 1772,4 | 104,1 |
| Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar | 135,2 | 104,5 |
| Ta’lim sohasidagi xizmatlar | 191,1 | 130,3 |
| Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 76,5 | 105,3 |
| Ijara xizmatlari | 128,1 | 99,0 |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar | 199,4 | 104,6 |
| Shaxsiy xizmatlar | 205,9 | 105,1 |
| Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 68,7 | 110,6 |
| Boshqa xizmatlar | 217,3 | 112,5 |

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari jami hajmining o‘sishidagi asosiy omil, ta’lim sohasidagi xizmatlar **30,3** % ga, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **23,7** % ga, boshqa xizmatlar **12,5** %, moliyaviy xizmatlari **8,0** % ga o‘sishi hisoblanadi. 2023- yilning yanvar-aprel oyida jami ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirma narxlardagi o‘sish sur’ati **106,5** % ni tashkil etdi.

## 2023- yilning yanvar-aprel oyida Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining o‘tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirma narxlardagi o‘sish sur’ati yuqori bo‘lgan xizmat turlari, %da




**Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o‘sish sur’ati – 106,5 %.**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2023- yil yanvar-aprel oyida bu xizmatlarning ulushi **31,2** % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, yuqori ko‘rsatkichlar transport sohasidagi xizmatlar bo‘yicha (**21,0** %), moliyaviy xizmatlari (**17,9** %), qayd etildi.

Yashash va ovqatlanish xizmatlar hajmida o‘sish sur’ati **4,7** % ni tashkil etdi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlar tarkibi, % da

*(2023- yilning aprel oyida)*



2023-yilning yanvar-aprel oyida ta’lim sohasidagi xizmatlar sohasida yuqori o‘sishga erishildi (**130,3** %). 2022- yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati bilan solishtirganda farq **44,4** punktni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-aprel va 2022- yanvar-aprel oylari uchun boshqa xizmatlarning o‘sish sur’atlari o‘rtasidagi tafovut **5,2** punkt darajasida qayd etildi.



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining o‘sish sur’atlari, % da



## Savdo xizmatlari
*(yanvar-aprel oyi uchun)*

| | *O'sish sur'ati, % da* | *Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm* |
|---|---|---|
| 2023- y. | 104,1 | 1772,4 |
| 2022- y. | 106,0 | 1509,4 |

| 2023- yil. Yanvar-aprel | Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm | O'sish sur'ati, % da |
|---|---|---|
| Qarshi shahar | 403,4 | 100,4 |
| Shahrisabz shahar | 39,6 | 99,3 |
| G'uzor tumani | 44,1 | 118,2 |
| Dehqonobod tumani | 48,7 | 103,2 |
| Qamashi tumani | 91,4 | 106,4 |
| Qarshi tumani | 105,0 | 104,2 |
| Koson tumani | 202,5 | 106,5 |
| Kitob tumani | 177,0 | 106,2 |
| Mirishkor tumani | 116,2 | 102,7 |
| Muborak tumani | 121,5 | 102,1 |
| Nishon tumani | 64,4 | 105,7 |
| Kasbi tumani | 104,5 | 110,9 |
| Ko'kdala tumani | 27,5 | 97,1 |
| Chiroqchi tumani | 54,6 | 99,9 |
| Shahrisabz tumani | 54,0 | 101,6 |
| Yakkabog' tumani | 118,0 | 92,2 |

**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.



# Transport xizmatlari
*(yanvar-aprel oyi uchun)*

| | *O'sish sur'ati, % da* | *Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm* |
|---|---|---|
| 2023 – y. | 102,5 | 1192,0 |
| 2022– y. | 113,8 | 1038,3 |



| 2023- yil. Yanvar-aprel | Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm | O'sish sur'ati, % da |
|---|---|---|
| Qarshi shahar | 161,4 | 113,0 |
| Shahrisabz shahar | 64,4 | 106,2 |
| G'uzor tumani | 58,1 | 106,9 |
| Dehqonobod tumani | 39,8 | 103,7 |
| Qamashi tumani | 79,1 | 106,4 |
| Qarshi tumani | 120,1 | 107,2 |
| Koson tumani | 94,5 | 102,8 |
| Kitob tumani | 77,4 | 102,4 |
| Mirishkor tumani | 100,2 | 107,9 |
| Muborak tumani | 86,7 | 83,1 |
| Nishon tumani | 64,7 | 103,7 |
| Kasbi tumani | 58,7 | 100,9 |
| Ko'kdala tumani | 23,3 | 105,5 |
| Chiroqchi tumani | 35,8 | 103,7 |
| Shahrisabz tumani | 59,0 | 108,1 |
| Yakkabog' tumani | 68,8 | 114,6 |

Transport xizmatlari hajmining o'sishi, yuk va yo'lovchilarni tashish xizmatlariga talabning oshishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida turistik faoliyatning jadal rivojlanishi, savdo tarmog'ining kengayishi, qurilish loyihalari hajmini yanada kengaytirishga, bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish, shuningdek, transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq.

# Avtomobil transporti xizmatlari
*(yanvar-aprel oyi uchun)*

| | *O‘sish sur’ati, % da* | *Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m* |
|---|---|---|
| 2023- y. | 102,9 | 1153,8 |
| 2022- y. | 110,7 | 991,4 |



| 2023- yil. Yanvar-aprel | Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m | O‘sish sur’ati, % da |
|---|---|---|
| Qarshi shahar | 151,0 | 122,8 |
| Shahrisabz shahar | 64,1 | 106,9 |
| G‘uzor tumani | 57,8 | 106,4 |
| Dehqonobod tumani | 39,6 | 102,7 |
| Qamashi tumanin | 77,9 | 105,4 |
| Qarshi tumani | 118,3 | 104,9 |
| Koson tumani | 94,3 | 101,8 |
| Kitob tumani | 74,4 | 102,3 |
| Mirishkor tumani | 99,1 | 105,9 |
| Muborak tumani | 79,7 | 76,0 |
| Nishon tumani | 64,6 | 102,8 |
| Kasbi tumani | 56,2 | 96,1 |
| Ko‘kdala tumani | 20,5 | 95,4 |
| Chiroqchi tumani | 33,8 | 102,7 |
| Shahrisabz tumani | 57,5 | 105,3 |
| Yakkabog‘ tumani | 64,8 | 109,4 |

Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo‘lovchilarni tashish bo‘yicha xizmatlarga to‘g‘ri keladi.

Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko‘rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.



# Moliyaviy xizmatlar
*(yanvar –aprel oyi uchun)*

| | *Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m* | *O‘sish sur’ati, % da* |
|---|---|---|
| 2023– y. | 1015,5 | 108,0 |
| 2022– y. | 847,8 | 131,0 |



| 2023- yil. Yanvar-aprel | Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m | O‘sish sur’ati, % da |
|---|---|---|
| Qarshi shahar | 366,4 | 98,3 |
| Shahrisabz shahar | 50,6 | 101,1 |
| G‘uzor tumani | 29,7 | 101,1 |
| Dehqonobod tumani | 15,0 | 112,6 |
| Qamashi tumani | 32,7 | 100,6 |
| Qarshi tumani | 33,3 | 101,3 |
| Koson tumani | 36,5 | 104,6 |
| Kitob tumani | 52,2 | 104,7 |
| Mirishkor tumani | 11,4 | 109,6 |
| Muborak tumani | 53,1 | 106,2 |
| Nishon tumani | 26,8 | 112,8 |
| Kasbi tumani | 18,4 | 108,4 |
| Ko‘kdala tumani | 20,5 | 102,2 |
| Chiroqchi tumani | 40,0 | 101,1 |
| Shahrisabz tumani | 192,8 | 106,1 |
| Yakkabog‘ tumani | 36,2 | 102,7 |

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to‘lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo‘yicha xizmatlari uchun to‘lanadigan haq hisobiga ko‘ra olinadi.



# Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari
*(yanvar-aprel oyi uchun)*

| | *O'sish sur'ati, % da* | *Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm* |
|---|---|---|
| 2023- y. | 123,7 | 293,9 |
| 2022- y. | 121,4 | 232,3 |



| 2023- yil. Yanvar-aprel | Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm | O'sish sur'ati, % da |
|---|---|---|
| Qarshi shahar | 39,9 | 138,2 |
| Shahrisabz shahar | 13,0 | 95,8 |
| G'uzor tumani | 17,9 | 107,9 |
| Dehqonobod tumani | 13,0 | 107,6 |
| Qamashi tumani | 19,3 | 110,2 |
| Qarshi tumani | 19,9 | 120,1 |
| Koson tumani | 19,9 | 113,0 |
| Kitob tumani | 22,8 | 105,4 |
| Mirishkor tumani | 11,1 | 110,3 |
| Muborak tumani | 8,4 | 109,5 |
| Nishon tumani | 13,9 | 110,4 |
| Kasbi tumani | 13,4 | 102,8 |
| Ko'kdala tumani | 0,9 | 122,5 |
| Chiroqchi tumani | 39,8 | 116,0 |
| Shahrisabz tumani | 18,0 | 102,1 |
| Yakkabog' tumani | 22,7 | 106,8 |

Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

# Ta'lim sohasidagi xizmatlar

*(yanvar-aprel oyi uchun)*

| | *O'sish sur'ati, % da* | *Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm* |
|---|---|---|
| 2023- y. | 130,3 | 191,1 |
| 2022- y. | 85,9 | 140,6 |



| 2023- yil. Yanvar-aprel | Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm | O'sish sur'ati, % da |
|---|---|---|
| Qarshi shahar | 157,4 | 165,2 |
| Shahrisabz shahar | 8,2 | 209,2 |
| G'uzor tumani | 1,2 | 119,1 |
| Dehqonobod tumani | 1,1 | 117,2 |
| Qamashi tumani | 3,3 | 113,6 |
| Qarshi tumani | 1,5 | 127,3 |
| Koson tumani | 2,1 | 135,6 |
| Kitob tumani | 4,5 | 122,4 |
| Mirishkor tumani | 1,1 | 137,9 |
| Muborak tumani | 0,6 | 146,5 |
| Nishon tumani | 1,6 | 124,5 |
| Kasbi tumani | 1,0 | 123,6 |
| Ko'kdala tumani | 0,8 | 139,9 |
| Chiroqchi tumani | 1,7 | 117,6 |
| Shahrisabz tumani | 2,5 | 155,3 |
| Yakkabog' tumani | 2,6 | 107,5 |

2023-yil yanvar-aprel oyida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **191,1** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **3,4** % ini tashkil etdi. 2022-yil yanvar-aprel oyiga nisbatan o'sish sur'ati **130,3** % ni tashkil etgan.

***Taqqoslash uchun***: 2022-yil yanvar-aprel oyida xizmatlar hajmi **140,6** mlrd. so'mni tashkil etgan.

# Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar *(yanvar-aprel oyi uchun)*

| | *O‘sish sur’ati, % da* | *Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m* |
|---|---|---|
| 2023– y. | 104,7 | 184,0 |
| 2022– y. | 106,0 | 145,9 |



| 2023- yil. Yanvar-aprel | Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m | O‘sish sur’ati, % da |
|---|---|---|
| Qarshi shahar | 31,5 | 132,9 |
| Shahrisabz shahar | 4,9 | 103,3 |
| G‘uzor tumani | 51,6 | 95,6 |
| Dehqonobod tumani | 9,2 | 103,2 |
| Qamashi tumani | 15,8 | 109,6 |
| Qarshi tumani | 7,1 | 102,3 |
| Koson tumani | 6,4 | 99,0 |
| Kitob tumani | 7,2 | 97,7 |
| Mirishkor tumani | 2,3 | 100,0 |
| Muborak tumani | 2,4 | 110,3 |
| Nishon tumani | 17,1 | 97,5 |
| Kasbi tumani | 14,7 | 96,2 |
| Ko‘kdala tumani | 2,3 | 107,7 |
| Chiroqchi tumani | 1,4 | 97,0 |
| Shahrisabz tumani | 6,7 | 101,0 |
| Yakkabog‘ tumani | 3,5 | 112,0 |

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo‘yicha qo‘yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o‘z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo‘yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta’minlash bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o‘z ichiga oladi.

# Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

*(yanvar-aprel oyi uchun)*

| | *Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m* | *O‘sish sur’ati, % da* |
|---|---|---|
| 2023- y. | 76,5 | 105,3 |
| 2022- y. | 59,5 | 101,3 |



| 2023- yil. Yanvar-aprel | Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m | O‘sish sur’ati, % da |
|---|---|---|
| Qarshi shahar | 50,1 | 103,3 |
| Shahrisabz shahar | 5,6 | 128,9 |
| G‘uzor tumani | 0,5 | 95,0 |
| Dehqonobod tumani | 0,4 | 121,8 |
| Qamashi tumani | 2,9 | 103,7 |
| Qarshi tumani | 1,0 | 95,7 |
| Koson tumani | 1,1 | 94,4 |
| Kitob tumani | 5,1 | 94,1 |
| Mirishkor tumani | 1,3 | 111,6 |
| Muborak tumani | 1,5 | 141,3 |
| Nishon tumani | 0,7 | 96,7 |
| Kasbi tumani | 1,5 | 95,7 |
| Ko‘kdala tumani | 0,2 | 93,9 |
| Chiroqchi tumani | 0,4 | 94,7 |
| Shahrisabz tumani | 3,1 | 97,8 |
| Yakkabog‘ tumani | 1,0 | 96,3 |

2023- yil yanvar – aprel oyida sog‘liqni saqlash xizmatlari hajmi **76,5** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **1,3** % ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan o‘sish sur’ati **105,3** % ni tashkil etgan.

***Taqqoslash uchun***: 2022- yil yanvar-aprel oyida ushbu xizmatlar hajmi **59,5** mlrd. so‘mni yoki ularning umumiy hajmining **101,3** % ini tashkil etgan.

## 2023- yil yanvar-aprel oyida hududlar bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari

| | Hajmi, mlrd. so‘m | Umumiy hajmdagi ulushi, % da | O‘sish sur’ati, 2022- yil yanvar oyiga nisbatan % da |
|---|---|---|---|
| **Qashqadaryo viloyati** | **5680,1** | **100,0** | **106,5** |
| Qarshi shahar | 1470,6 | 25,9 | 110,0 |
| Shahrisabz shahar | 222,0 | 3,9 | 105,6 |
| *tumanlar:* | | | |
| G‘uzor tumani | 242,7 | 4,3 | 106,0 |
| Dehqonobod tumani | 171,0 | 3,0 | 105,3 |
| Qamashi tumani | 343,5 | 6,0 | 105,5 |
| Qarshi tumani | 342,2 | 6,0 | 106,7 |
| Koson tumani | 406,6 | 7,2 | 106,8 |
| Kitob tumani | 391,7 | 6,9 | 106,1 |
| Mirishkor tumani | 275,9 | 4,9 | 106,3 |
| Muborak tumani | 382,7 | 6,7 | 103,8 |
| Nishon tumani | 229,3 | 4,0 | 105,0 |
| Kasbi tumani | 250,8 | 4,4 | 106,7 |
| Ko‘kdala tumani | 85,6 | 1,5 | 102,5 |
| Chiroqchi tumani | 193,0 | 3,4 | 103,6 |
| Shahrisabz tumani | 368,0 | 6,5 | 105,5 |
| Yakkabog‘ tumani | 304,5 | 5,4 | 102,4 |

*1) hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda*

2023- yil yanvar-aprel oyida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush – **25,9** % ni Qarshi shahri tashkil etdi. Xizmat ko‘rsatish sohasining nisbatan eng past ko‘rsatkichlari Ko‘kdala tumanida – **1,5** % ni tashkil etdi.

# Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko‘rsatkichlari *(yanvar-aprel oyi uchun)*

| | *O‘sish sur’ati, % da* | *Xizmatlar hajmi, ming. so‘m* |
|---|---|---|
| 2023- y. | 104,2 | 1627,2 |
| 2022- y. | 109,3 | 1399,0 |



| 2023- yil.yanvar- aprel | Xizmatlar hajmi, ming. so‘m | O‘sish sur’ati, % da |
|---|---|---|
| Qarshi shahar | 5072,7 | 107,6 |
| Shahrisabz shahar | 1530,0 | 104,0 |
| G‘uzor tumani | 1114,5 | 103,6 |
| Dehqonobod tumani | 1092,2 | 103,2 |
| Qamashi tumani | 1194,7 | 103,2 |
| Qarshi tumani | 1284,9 | 104,2 |
| Koson tumani | 1331,0 | 104,3 |
| Kitob tumani | 1414,9 | 104,1 |
| Mirishkor tumani | 2172,8 | 104,0 |
| Muborak tumani | 4159,9 | 102,1 |
| Nishon tumani | 1405,3 | 102,7 |
| Kasbi tumani | 1201,0 | 104,5 |
| Ko‘kdala tumani | 465,3 | - |
| Chiroqchi tumani | 738,4 | 171,7 |
| Shahrisabz tumani | 1589,5 | 103,8 |
| Yakkabog‘ tumani | 1098,0 | 100,3 |

2023- yilning yanvar-aprel oyida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1627,2** ming so‘mga yetdi. 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan o‘sish sur’ati **104,2** % ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-aprel oyida ushbu ko‘rsatkich hududlar bo‘yicha Qarshi shahrida **5072,7** ming so‘mdan Ko‘kdala tumanida **465,3** ming so‘mgachani tashkil etdi.

## 2023- yilning 1- may holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*

**Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**

**22 770 birlik**

**101,0 %** — 2022- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati

**birlik 222** — 2022- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o‘sishi



**Xizmatlar sohasi** xalqaro korpo-ratsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markaz-lari, telekommuni-katsiyalar, sug‘urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shu-ningdek, notijorat tashkilotlarni qam-rab oladi.

## 2023- yilning 1- may holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi

*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*




***Taqqoslash uchun:*** 2022- yilning **1**- may holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayot-gan korxona va tashkilotlarning ulushi **59,2** % ni tashkil etgan.

## 2023- yilning 1- may holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi, % da

*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*



Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (**29,3** %).

Transport xizmat ko‘rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **2,7** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida yashash va ovqatlanish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **4,7** % ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilot-larning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **1,2** % ga teng bo‘ldi.

Sog‘liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tash-kilotlarning ulushi **2,2**% ni tashkil etdi.



# Xizmat ko‘rsatish sohasidagi kichik biznes
*(yanvar-aprel oyi uchun)*

| | *O‘sish sur’ati, % da* | *Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m* |
|---|---|---|
| 2023- y. | 105,0 | 3819,9 |
| 2022- y. | 110,8 | 3259,6 |



| 2023- yil. Yanvar-aprel | Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m | O‘sish sur’ati, % da |
|---|---|---|
| Qarshi shahr | 652,4 | 106,9 |
| Shahrisabz shahar | 151,7 | 104,9 |
| G‘uzor tumani | 193,3 | 108,1 |
| Dehqonobod tumani | 140,8 | 104,9 |
| Qamashi tumani | 292,3 | 106,1 |
| Qarshi tumani | 286,3 | 106,9 |
| Koson tumani | 346,8 | 106,6 |
| Kitob tumani | 331,6 | 107,1 |
| Mirishkor tumani | 252,1 | 106,0 |
| Muborak tumani | 240,1 | 95,0 |
| Nishon tumani | 173,9 | 104,8 |
| Kasbi tumani | 204,8 | 99,4 |
| Ko‘kdala tumani | 65,0 | 102,5 |
| Chiroqchi tumani | 112,8 | 110,3 |
| Shahrisabz tumani | 154,1 | 107,8 |
| Yakkabog‘ tumani | 221,9 | 100,8 |

2023- yil yanvar-aprel oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi **3819,9** mlrd. so‘mga teng bo‘lib, ishlab chiqarilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida ularning ulushi **67,3** % ini tashkil etdi.